

**Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetining**  
**Sirtqi ta'lim shakli 5110203-PSIXOLOGIYA ( AMALIY PSIXOLOGIYA) yo'nalishi**  
**2023-2024 o'quv yilida bitiruvchi talabalari uchun tashkil etilayotgan**  
**Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlarini majburiy fanlardan tuzilgan test savollar**  
**B A N K I**

**1. UMUMIY PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI FAN BO'YICHA:**

№	TEST SAVOLLAR
1.	Psixologiya fani nimani o'rganadi?
A)	psixik faktlar va ularning mexanizmlari qonuniyatlari haqidagi fan
B)	jon va ruh haqidagi ta'limot
C)	individual psixologik xususiyatlarni
D)	inson shaxsi uning psixologik xususiyatlarini
...	
2.	..... shunday psixik jarayonlar, holatlar yig'indisiki unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi.
A)	ongsizlik
B)	alahlash
C)	gallyutsinatsiya
D)	patologik hodisalar
...	
3.	Organizmning tashqi va ichki ta'sirotlarga markaziy nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasi ..... deb ataladi.
A)	refleks
B)	instinkt
C)	ko'nikma
D)	malaka
...	
4.	Psixoanaliz maktabiga kim asos solgan?
A)	Z.Freyd
B)	K.N Kornilov
C)	E.Torndayk
D)	Dj.Uotson
...	
5.	..... psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi.
A)	determinizm
B)	ong va faoliyat birligi
C)	ongni faoliyatda rivojlanishi
D)	barchasi to'g'ri
...	
6.	..... ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham aynan bir narsa emas ular bir butunlikni tashkil etadi.
A)	ong va faoliyat birligi
B)	determinizm
C)	ongning faoliyatda rivojlanishi
D)	psixika

...	
7.	Qaysi qatorda tashkiliy guruh metodlari ko'rsatilgan?
A)	longityud, qiyoslash, kompleks
B)	genetik donalash kuzatish anketa
C)	kuzatish, eksperiment, longityud qiyoslash
D)	sotsiometriya, kuzatish kompleks qiyoslash
...	
8.	Inson faoliyati natijasining so'nggi obrazi sifatida namoyon bo'ladigan va ehtiyojlarning amalga oshirilishi bu.....
A)	maqsad
B)	ish-harakat
C)	motiv
D)	odat
...	
9.	Kishini faoliyatga undaydigan va unga mazmun baxsh etadigan kuch bu.....
A)	motiv
B)	ish-harakat
C)	maqsad
D)	odat
...	
10.	.....bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi.
A)	odat
B)	maqsad
C)	motiv
D)	sa'i –harakat
...	
11.	Tashqi real rejadan ichki ideal rejaga o'tish jarayoni bu.....
A)	interiorizatsiya
B)	ko'nikma
C)	malaka
D)	sa'i –harakat
...	
12.	Ichki aqliy harakatdan tashqi predmetli harakatga o'tish jarayoni bu.....
A)	eksteriorizatsiya
B)	malaka
C)	ko'nikma
D)	sa'i –harakat
...	
13.	Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish.....deb ataladi.
A)	ko'nikma
B)	interiorizatsiya
C)	sa'i –harakat
D)	eksteriorizatsiya
...	
14.	Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi .....deb ataladi.
A)	malaka
B)	interiorizatsiya
C)	sa'i –harakat
D)	eksteriorizatsiya

...	
15.	.....ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki madaniy ma'naviy boylik yaratishga qaratilgan faoliyat turi.
A)	mehnat
B)	ko'nikma
C)	malaka
D)	o'yin
...	
16.	O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qayta tiklanishi..... deb ataladi
A)	esga tushirish
B)	tanish
C)	eslash
D)	bevosita esga tushirish
...	
17.	..... ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida esga tushirishdir
A)	tanish
B)	esga tushirish
C)	eslash
D)	bevosita esga tushirish
...	
18.	Narsa va hodisalarni ayni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga aytiladi
A)	eslash
B)	tanish
C)	esga tushirish
D)	bevosita esga tushirish
...	
19.	Unutilgandan keyin ham materialning xotiraga qaytishi .....deb ataladi.
A)	reministsentsiya
B)	amneziya
C)	retrograd amneziya
D)	assotsiatsiya
...	
20.	Unutishning vaqtga bog'liqligini o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan
A)	G.Ebbingauz
B)	A.Smirnov
C)	I.Pavlov
D)	I.Sechenov
...	
21.	Qaysi olimning fikricha, shaxs rivojlanishida men jamiyat ichida degan pozitsiyani boshidan kechiradi ?
A)	I.Feldshteyn
B)	B.Petrovskiy
C)	J.Piarje
D)	A.Ballon
...	
22.	Odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni psixologiyaning qaysi tarmog'i o'rganadi?
A)	Ijtimoiy psixologiya

B)	Pedagogik psixologiya
C)	Yosh davrlar psixologiyasi
D)	Yuridik psixologiya
...	
23.	Noverbal nutqning turlaridan birini ko'rsating
A)	Imo-ishora
B)	Ekspressiv
C)	Monologik
D)	Og'zaki
...	
24.	Chaqaloqning inson zotiga mansubligini tasdiqlaydigan faqat qanday tushuncha bilan nomlanadi?
A)	Individ
B)	SHaxs
C)	Individuallik
D)	Yo'nalganlik
...	
25.	Lotinchada "ajralmas", "alohida zot" degan ma'naviy anglatuvchi termini belgilang
A)	individ
B)	Individuallik
C)	shaxs
D)	inson
...	
26.	Insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi fanda qanday nom bilan yuritiladi?
A)	Individuallik
B)	Intelektuallik
C)	O'ziga xoslik
D)	
...	
27.	Diqqat bu:
A)	inson ongining muayyan ob'ektga to'planishi va yo'naltirilishi
B)	inson ongining o'z sub'ektiv taassurotlariga, his-tuyg'ulariga, intilishlariga qaratilishi
C)	ikki va undan ko'proq faoliyat turlarining bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatli bajarilishi
D)	insonlar ongining qiziqish asosida muayyan ob'ektga qarata yo'naltirilishi va to'planishi
...	
28.	Biogenetik nazariya negizida bosh omil sifatida nima qabul qilingan?
A)	Insonning biologik etilishi
B)	Insonning aqliy etilishi
C)	Insonning sotsiologik etilishi
D)	Insonning qarib etilishi
...	
29.	Shaxs tomonidan ehtiyojning etarli darajada anglanilganligi bilan tavsiflanuvchi faoliyat motivi bu-
A)	istak
B)	qiziqish
C)	iztirob
D)	quvonch
...	

30.	.....oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko‘p incha ongsiz tarzda hosil bo‘ladigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o‘zgartirish qifoya.
A)	elementar ustanovkalar (set)
B)	bazaviy ijtimoiy ustanovkalar
C)	qadriyatlar tizimi
D)	ijtimoiy ustnovkalar (attitud)
...	
31.	Bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo‘lishi bu.....
A)	ambivalentlik
B)	ekspressiya
C)	hissiyot
D)	Emotsiya
...	
32.	Shaxsning dinamik funksional tuzilishi qaysi olim tomonidan ilgari surilgan ?
A)	K.Platanov
B)	B.Petrovskiy
C)	P.Pavlov
D)	I.Ivanov
...	
33.	J.Piarje va J.Kellilar qaysi yo‘nalishning asoschisi hisoblanadi ?
A)	Kognitivistik
B)	Biogenetk
C)	Sotsiogenetik
D)	Intelekt
...	
34.	“Temperament” so‘zining lug‘aviy ma’nosini aniqlang.
A)	Lotincha “aralashma”
B)	Grekcha “belgi”, “tamg‘a”
C)	Grekcha “qorishma”, “aralashma”
D)	Lotincha “o‘zgarmas”, “Qotib qolgan”
...	
35.	Individ so‘zining manosi nima ?
A)	Lotincha ajralmas, alohidalik
B)	YUnoncha odam
C)	Grekcha shaxs
D)	Lotincha tanxolik
...	
36.	Ehson, adolat, ezgulik, saxovat, vafo qaysi hislar turiga kiradi?
A)	ma’naviy
B)	estetik
C)	intellektual
D)	irodaviy
...	
37.	Odamlar o‘zlari yashab turgan jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarni ado etishlari yoki buzishlari sababli paydo bo‘ladigan hislar qanday hislar sirasiga kiradi?
A)	ma’naviy
B)	estetik
C)	intellektual
D)	irodaviy

...	
38.	Ma'lum bir ijtimoiy foydali, moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat turini ko'rsating?
A)	Mehnat
B)	Ta'lim
C)	O'yin
D)	Amaliy faoliyat
...	
39.	I.Feldshteyn fikricha shaxsning rivojlanishidagi 2-davr qanday nomlanadi
A)	Men va jamiyat
B)	Men va oilam
C)	Men jamiyat ichida
D)	Jamiyat va shaxs
...	
40.	Xarakterga undovchi kuchga . . .
A)	motiv deyiladi
B)	motivatsiya deyiladi
C)	faollik deyiladi
D)	ishchanlik deyiladi
...	
41.	Hayvonlarda faoliyatning qaysi turi yaxshi rivojlangan ?
A)	O'yin
B)	Mehnat
C)	O'quv
D)	Tajriba
...	
42.	Kuzatish metodining turlari qaysi bandda to'g'ri sanab o'tilgan?
A)	Ob'ektiv kuzatish va sub'ektiv kuzatish
B)	Oddiy kuzatish, murakkab kuzatish
C)	Ilmiy kuzatish, oddiy kuzatish
D)	Og'zaki kuzatish, yozma kuzatish
...	
43.	Temperamentning fizologik asoslariga ulkan xissa qo'shgan olim nomini aniqlang (1849-1936)
A)	Pavlov I.P
B)	Sechenov
C)	Teplov B.M
D)	Klimov E.A
...	
44.	B.D.Parigin shaxsning dinamik strukturasi ikki asosiy jabhaga taalluqligiga ishora qilgan va ular qaysilar?
A)	Psixik holatlarga va xulqqa
B)	Odamning shaxsiy qarashlariga
C)	Bilimlaridagi uzilishlarini to'ldirishga
D)	Dunyoqarashlariga asoslanib
...	
45.	Psixologiya fani nimani o'rgatadi?
A)	Psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini umumiy qonuniyatlari namoyon bo'lish mexanizmlari va faqatlarni o'rganadi
B)	Kishiga ta'lim tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi
C)	Turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxrigacha psixik rivojlanish

	jarayonini shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi
D)	Odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni o'rganadi
...	
46.	Quydagilardan qaysi biri psixologik maorif va marifat ishlaridagi psixologning faoliyati hisoblanadi ?
A)	Psixologik savodxonlikni oshirish
B)	Deviant bolalar bilan ishlash
C)	Ota-onalar bilan ishlash
D)	Psixologik maslahat berish
...	
47.	Xulqi xatti-harakati buzilgan o'quvchilarni to'g'ri yo'lga boshlash ishlarini psixolog qaysi faoliyat yo'nalishida olib boradi ?
A)	Psixoprofilaktika
B)	Psixologik maslahat
C)	Psixologik maorif
D)	Psixologik maslahat
...	
48.	Malaka va ko'nikmalar shakllanishiga, o'qishga moyillik uyg'otadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy xissiy holat bu –
A)	qiziqish
B)	istak
C)	iztirob
D)	quvonch
...	
49.	SHaxsning qaysi induvidual xususiyatlari bilim, ko'nikma, malaka orttirish bilan o'zaro bog'liq?
A)	Qobiliyat
B)	Xarakter
C)	Temperament
D)	Xarakter va qobiliyat
...	
50.	Gippokrat ta'limotiga ko'ra insondagi qaysi suyuqlikning vazifasi tanani isitib turishdan iborat?
A)	Qonning
B)	O't
C)	Safroning
D)	Balg'amning
...	
51.	Organizmning tashki ta'siriga konuniy javob reaksiyasi bu...
A)	Refleks
B)	Tormozlanish
C)	Kuzgalish
D)	Induksiya
...	
52.	Psixologiyada taraqqiyotning rekapitulyasiya qonuni muallifi kim?
A)	Xoll.
B)	Gekkel.
C)	Krechmer.
D)	Myuller.
...	

53.	SHaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir deb shaxsga ta'rif bergan olimni nomini aniqlang?
A)	S.L.Rubinshteyn
B)	Dj.Kelli
C)	E.Gekkellar
D)	Dj.Birrer
...	
54.	Qaysi olim shaxs rivoji motivlarga bog'liqligini isbotlagan ?
A)	S.Vigotskiy
B)	Schenov
C)	I.Pavlov
D)	R.Zazzo
...	
55.	Quyidagi temperament tipini aniqlang: "Juda faol, atrofdagi narsalarga diqqatini tez jalb qiladi, ishgan nutq, surati tez, intilishlari o'zgaruvchan, tashqi ta'sirlarga xozirjavob..."
A)	Sangvinik
B)	Xolerik
C)	Flegmatik
D)	Xolero-sangvinik
...	
56.	Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lish individ bu. . .
A)	SHaxs
B)	Individ
C)	Individuallik
D)	Yo'nalganlik
...	
57.	Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan mavjudot ijtimoiy muxit ta'sirida keyinchalik (oxirgi bosqichda) qanday maqomni egallaydi?
A)	SHaxs
B)	Kishi
C)	Inson
D)	Odam
...	
58.	K.Platonov jamiyatda o'z ro'lini anglovchi, ishga layoqatli a'zosi qanday nomlagan ?
A)	SHaxs
B)	Inson
C)	Individ
D)	Odam
...	
59.	K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra yo'nalganlik osttuzilishini ta'rifini toping?
A)	SHaxsning axloqiy qiyofasi va munsabatlarini birlashtirad.
B)	Ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi
C)	Ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari
D)	Yo'nalganlik, ijtimoiy tajriba osttuzilishi, psixologik aks ettirish shakllari, biologik shartlangan osttuzilishlar
...	
60.	"Shaxsning rolli tuzilishi" nomli konsepsiya asoschilari kimlar ?
A)	T.Parsons, G.Mid

B)	F.Myuller,E.Gekkel
C)	J.Piaje,U.Torndayk
D)	T.Parsons,A.Maslau
...	
61.	Sub'ektning o'rganishni maqsad qilib olgan, axborotni, harakatlarni, xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turini ko'rsating?
A)	Ta'lim
B)	O'yin
C)	Mehnat
D)	Amaliy faoliyat
...	
62.	Sezgining jadalligi bu:
A)	ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holatidir;
B)	qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va bu ta'sirning jadalligidir;
C)	qo'zg'atuvchilarning muayyan joylarda yuz berishidir;
D)	sezgining uzoq davom etishidir;
...	
63.	Eksperiment metodining turlari qaysi bandda to'g'ri berilgan?
A)	Tabiiy va laboratoriya eksperiment
B)	Laboratoriya eksperimenti
C)	Individual va guruhlik eksperiment
D)	Tabiiy eksperiment
...	
64.	SHaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beruvchi qobiliyatlar majmuiga . . . deyiladi.
A)	Talant
B)	Iqtidorlilik
C)	Layoqat
D)	Qobiliyatning yuqori cho'qqisi
...	
65.	Psixologiya fanida alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuiga . . . deyiladi.
A)	Temperament xususiyati
B)	Xarakter xususiyati
C)	Qobiliyatning namoyon bo'lishi
D)	Bilish jarayonlari
...	
66.	SHaxsning individual psixologik xususiyatlari sirasiga qo'yidagilardan qaysilar kiradi?
A)	Temperament, qobiliyat, xarakter
B)	Temperament, xarakter, iroda
C)	Sezgi, diqqat, idrok, xotira
D)	Diqqat, xotira, tafakkur, xarakter
...	
67.	S.L.Rubinshteyn talqiniga binoan individual tipologik xususiyatlar nimada aks etadi?
A)	Temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi
B)	Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlada
C)	Hayot va faoliyat jarayonida egallashda.
D)	Ehtiyojlar, dunyoqarashlarda ifodalanadi
...	
68.	Testning ko'rinishlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

A)	Test-so'rov, test-topshiriq, proektiv test
B)	Og'zaki test, yozma test, erkin test
C)	Standartlashgan test, tashqi test, ichki test
D)	Tabiiy test, maxsus test, so'rov testi
...	
69.	Tana tuzilishi va temperament xususiyatlari ichki sekretsiya bezlari faoliyatidagi nasliy belgilarga bog'liqligi xaqidagi ta'limot asoschilarini aniqlang
A)	U.S.Heldon, E.Krechmer
B)	U.S.Heldon, Lesgaft
C)	E.Krechmer, I.S.Kon
D)	Bunday ta'limot mavjud emas
...	
70.	Psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlari, umumiy qonuniyatlari, namoyon bo'lish mexanizmlari va faqatlarini psixologiyaning qaysi tarmog'i o'rganadi?
A)	Umumiy psixologiya
B)	Pedagogik psixologiya
C)	YOsh davrlar psixologiyasi
D)	Ijtimoiy psixologiya
...	
71.	SHaxning tabiatga, jamiyatga, o'ziga nisbatan munosabatlar yig'indisiga... deyiladi.
A)	Xarakter
B)	Faollik
C)	sezuvchanlik
D)	Temperamentni namoyon bo'lishi
...	
72.	Yunonchadan olingan bo'lib, "bosilgan", "tamg'a", "qiyofa", "xislat" ma'nosini anglatuvchi termin nomini toping.
A)	xarakter
B)	temperament
C)	krasis
D)	qobiliyat
...	
73.	Quyidagi misolga e'tibor bering. "U" (ya'ni shaxs) ishda mayus, jamoada tortinchoq, xonadonida esa ko'tarinki ruhda, munosabatlari iliq.. ushbu xodisani to'g'ri baxolash uchun nima qilmoq darkor?
A)	Xarakterini aniqlash lozim
B)	Temperamentini aniqlash kerak
C)	Uning ishdagi faoliyatiga ko'maklashish lozim
D)	Uning bu holatini shundayligicha qabul qilish lozim
...	
74.	S.Vigotskiy shaxsning psixik funksiyasini qanday turlarga ajratgan ?
A)	Yuksak, madaniy, quyi, tabiiy
B)	Quyi va ijtimoiy
C)	Sotsial, psixologik, genetik
D)	Madaniy, maifiy, ilmiy
...	
75.	"Shaxsning barcha xatti-harakatlari ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan" – ushbu talqin kimga taalluqli?
A)	Z.Freyd
B)	S.Xoll

C)	E.Krechmer
D)	V.SHtern
...	
76.	Ongsizlik ta'limoti asoschisini belgilang
A)	Z.Freyd
B)	A.Adler
C)	K.YUng
D)	E.Fromm
...	
77.	Idrok bu:
A)	analizatorlarga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni, ularning belgi va xususiyatlarini miyada yaxlit bir butunligicha aks ettirishdir;
B)	kishining voqelikni oldin egallagan tajribalari asosida aks ettirishidir;
C)	sezgilar yig'indisidir;
D)	narsalarning ayrim belgilarini aks ettirishdir;
...	
78.	Xotira bu:
A)	bosh miyaning bilim va tajribalarni egallash, esda saqlash va esga tushirishdan iborat qobiliyatidir;
B)	oldin egallagan tajribalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat psixik jarayon;
C)	kishining sezgi va idroklari asosida o'z tajribasini boyitish qobiliyati;
D)	oldin qabul qilingan taassurotlarni esda saqlash;
...	
79.	Ixtiyorsiz diqqat qanday vujudga keladi
A)	ehtiyoj, qiziqish asosida
B)	ongli maqsad asosida
C)	ehtiyoj asosida
D)	qiziqish asosida
...	
80.	Eshitish analizatorining tovush to'lqinlarining kuchiga moslashuvi natijasida eshituv sezgirligining o'zgarishi bu:
A)	eshitish adaptatsiyasi
B)	ko'rish adaptatsiyasi
C)	teri-tuyush adaptatsiyasi
D)	hid bilish adaptatsiyasi
...	
81.	Propriotseptiv sezgi bu:
A)	gavda harakatlarini uyg'unlashtirishda, muvofiqlashtirishda, organizmning fazodagi holatini, ayniqsa, muvozanatni saqlashda aktiv ishtirok etadigan sezgi
B)	organizmning yuza qismida joylashgan a'zolarida hosil bo'lib, narsalarning sifati va xususiyatlarini aks ettiradigan
C)	sezgi
D)	ichki organlarning holatini og'riq, chanqash, och qolish kabilarni aks ettiradigan sezgi
...	
82.	Sezgi a'zolarimizga ta'si etib turgan nasalarni noto'g'ri idroq qilishimizga nima deyiladi?
A)	illyuziya
B)	emotsiya
C)	abuliya
D)	gallyusinatsiya

...	
83.	Sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri yoki buzib idrok qilinishi- bu:
A)	illyuziya;
B)	konvergeniya;
C)	akkomodatsiya;
D)	idrokning konstantligi
...	
84.	Temperamentning konstitutsional nazariyasi muallifi:
A)	Krechmer
B)	Xoll.
C)	Myuller.
D)	Gekkel.
...	
85.	Ixtiyoriy diqqat qanday vujudga keladi?
A)	irodaviy zo'riqish asosida
B)	ehtiyoj, qiziqish asosida
C)	ehtiyoj asosida
D)	qiziqish asosida
...	
86.	Irodaviy zo'riqishni talab qiladigan diqqat qaysi diqqat?
A)	ixtiyoriy diqqat;
B)	ixtiyorsiz diqqat;
C)	ichki diqqat;
D)	tashqi diqqat;
...	
87.	Oldimizga birorta maqsad qo'yib, esda olib qolish va yana qayta esga tushirish bu:
A)	ixtiyoriy xotira;
B)	harakat xotirasi;
C)	ixtiyorsiz xotira;
D)	operativ xotira
...	
88.	Kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno diqqat qanday diqqat?
A)	ixtiyorsiz diqqat;
B)	ixtiyoriy diqqat;
C)	muvofiqlashgan diqqat;
D)	ichki diqqat;
...	
89.	Biron narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish va yana qayta esga tushirish bu:
A)	ixtiyorsiz xotira;
B)	harakat xotirasi;
C)	operativ xotira;
D)	ixtiyoriy xotira
...	
90.	SHaxs faolligi deganda nimani tushuniladi?
A)	Odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan faol ta'siri.
B)	Tashqi muhit bilan aloqasi.
C)	Tevarak atrofdagi olam bilan munosabatda bo'ladi.
D)	SHaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarida aks etadi.

...	
91.	Ixtiyorsiz diqqat bu:
A)	kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno diqqat
B)	ko'pgina kishilar ongining muayyan ob'ektga qarata yo'naltirilishi va to'planishi
C)	insonlar ongining qiziqish asosida muayyan ob'ektga qarata yo'naltirilishi va to'planishi
D)	insonlar ongining ehtiyoj asosida muayyan ob'ektga qarata yo'naltirilishi va to'planishi
...	
92.	Ko'ruv analizatori orqali amalga oshiriladigan idrok bu:
A)	ko'ruv idroki
B)	ta'm bilish idroki
C)	hid bilish idroki
D)	eshitish idroki
...	
93.	Ko'ruv analizatoriga bevosita ta'sir etib turgan ranglar va yorug'likni aks ettirishdan iborat sezgi bu:
A)	ko'ruv sezgisi
B)	ta'm bilish sezgisi
C)	eshitish sezgisi
D)	hid bilish sezgisi
...	
94.	Suvda yoki so'lakda erigan moddalarning ta'mini aks ettirishdan iborat sezgi bu:
A)	maza sezgilari
B)	ichki sezgilar
C)	tashqi sezgilar
D)	teri-tuyush sezgilari
...	
95.	Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra turlari:
A)	tabiiy va madaniy
B)	moddiy va ma'naviy
C)	tabiiy va ma'naviy
D)	moddiy va madaniy
...	
96.	Qaysi qatorda diqqat tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?
A)	ongimizning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishidan iborat psixik jarayon
B)	ma'lum ob'ektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilishi
C)	bir vaqtda bir necha ob'ektga yoki faoliyatga taqsimlanishi
D)	markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi
...	
97.	Dominanta tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A)	A.A. Uxtomskiy
B)	A.R.Luriya
C)	I.M.Sechenov
D)	P.YA.Galperin
...	
98.	Oliy nerv faoliyatidagi qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabat..... deb ataladi.
A)	nerv jarayonlarining induksiyasi
B)	diqqatsizlik
C)	dominanta
D)	parishonxotirlik

...	
99.	Muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo'zg'aluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan markaz..... deb ataladi.
A)	dominanta
B)	nerv jarayonlarining induksiyasi
C)	parishonxotirlik
D)	diqqatsizlik
...	
100.	Nerv jarayonlarining induksiyasi qonuni qaysi olim tomonidan kashf qilingan?
A)	I.P.Pavlov
B)	A.A.Uxtomskiy
C)	A.R.Luriya
D)	D.B. Nebilitsin
...	
101.	..... deb oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum narsa hamda hodisalarga qaratilishiga aytiladi.
A)	ixtiyoriy
B)	ixtiyorsiz
C)	ixtiyoriydan keyingi diqqat
D)	diqqat tanqisligi
...	
102.	Diqqatning ko'lami qaysi asbob yordamida o'lchanadi?
A)	taxistoskop
B)	varometr
C)	manometr
D)	sekundomer
...	
103.	Agar diqqatimiz faqat bitta ob'ektga qaratilishi.....
A)	diqqatning konsentratsiyasi
B)	diqqatning bo'linuvchanligi
C)	diqqatning ko'lami
D)	diqqatning taqsimlanganligi
...	
104.	Agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha ob'ektga qaratilishi:
A)	diqqatning taqsimlanganligi
B)	diqqatning konsentratsiyasi
C)	diqqatning ko'lami
D)	diqqatning kuchi va barqarorligi
...	
105.	Faoliyat jarayonida diqqatning ongli ravishda bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga o'tkazilishi ..... aytiladi.
A)	diqqatning ko'chishi
B)	diqqatning bo'linuvchanligi
C)	diqqatning konsentratsiyasi
D)	diqqatning ko'lami
...	
106.	Ixtiyoriydan keyingi diqqat tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?
A)	N.F.Dobrinin
B)	D.B.Elkonin
C)	I.M. Sechenov
D)	I.P.Pavlov

...	
107.	Diqqat tushunchasini ustanovka bilan bog'lagan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A)	D.N.Uznadze
B)	D.B.Elkonin
C)	L.S.Vigotskiy
D)	P.P.Blonskiy
...	
108.	Sezgi bu ...
A)	eng oddiy psixik jarayon bo'lib, narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini ongimizda aks etishidir
B)	o'tmishdagi voqea-hodisalarga munosabat
C)	esga tushirish, esda saqlash
D)	shaxs hulq-atvori, xususiyati
...	
109.	«Sezgi kuchi ta'sir etuvchi kuchiga logarifmik proporsionaldir» mazkur qonun mualliflari qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A)	Veber-Fexner
B)	Dubrovina, Pavlov
C)	Kuzmina-Lichko
D)	Mexler-Kabanova
...	
110.	Sezgi organlarining ularga ta'sir etuvchi stimullarga moslashish bu...
A)	adaptatsiya
B)	interotseptiv
C)	konstantligi
D)	sensibilizatsiya
...	
111.	Sensibilizatsiya bu.....
A)	mashq qilishi natijasida sezgi organlarini sezuvchanligi ortishi
B)	bir sezgiga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilar yig'indisi
C)	ko'z gavharini moslashishi
D)	predmetlarni u haqidagi ma'lumotlarni jamlangan holati
...	
112.	Shaxsning individualligi tushunchasini aniqlang!
A)	Betakrorligi
B)	Yaxlitligi
C)	Tanholigi
D)	Barqarorligi
...	
113.	Bir sezgiga a'zosiga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi ikkinchi sezgini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur qonuniyat nima deb ataladi?
A)	sinesteziya
B)	adaptatsiya
C)	konstatuktiv
D)	sensibilizatsiya
...	
114.	Idrok bu .....
A)	sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir
B)	bor narsani noto'g'ri anglash
C)	yo'q narsani his qilish

D)	sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi
...	
115.	Gallyusinatsiya – bu .....
A)	yo'q narsani noto'g'ri idrok qilish
B)	bor narsani noto'g'ri idrok qilish
C)	idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi
D)	mavjud narsalarni bo'rttirib idrok qilish
...	
116.	Narsalarning fizik holati (ko'z to'r pardasidagi obrazi) o'zgarsa-da, obrazining o'zgarmasligi bu...
A)	idrok konstantligi
B)	gallyusinatsiya
C)	idrok
D)	sezgi
...	
117.	Idrok konstantligi bu.....
A)	narsalarning fizik holati (ko'z to'r pardasidagi obrazi) o'zgarsa-da, obrazining o'zgarmasligi
B)	shaxsning idrok qilish qobiliyati
C)	idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi
D)	vaqtni idrok qilish
...	
118.	Sezgi bu:
A)	oddiy bilishdan iborat psixik jarayon bo'lib, moddiy borliqdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini, shu bilan birga, ichki a'zolarimizda yuz bergan ayrim o'zgarishlarni aks ettirishdan iborat;
B)	moddiy borliqdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bosh miya po'sti reaksiyasidir;
C)	ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning bosh miya po'stida aks etish jarayonidir;
D)	sezgilar tirik organizmning tashqi dunyoga moslashish xususiyatidir;
...	
119.	Xromatik ranglar bu:
A)	oq-qora rangdan tashqari barcha ranglar
B)	oq-qora va ular o'rtasidagi kulrang tusdagi ranglar
C)	oq-qora va qizil ranglar
D)	oq-qora va sariq ranglar
...	
120.	Hozirgi zamon psixologiyasida shaxs faolligi manbai, zarurat – bu ...
A)	Ehtiyoj
B)	Qiziqish
C)	Ishtiyok
D)	Jinsiy mayllar
...	
121.	Sezgining doimiyligi bu:
A)	qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va bu ta'sirning jadalligidir;
B)	sezgining uzoq davom etishidir;
C)	ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holatidir;
D)	axbortlarni qabul qilish, saralash va miyaga etkazishdir;
...	
122.	Sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa yoki hodisa
A)	qo'zg'ovchi

B)	afferentlar
C)	retseptorlar
D)	effektorlar
...	
123.	Sezgining mutlok yukori sezuvchanligi bu:
A)	qo'zgatuvchining eng ko'p darajadagi kuch bilan ta'sir qilishi
B)	sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa yoki hodisa
C)	bilinar-bilinmas sezgi xosil qiladigan qo'zgatuvchining eng kam kuchi
D)	sezgilarning o'zaro munosabati
...	
124.	Ko'zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati bu:
A)	rang sezish
B)	ta'm sezish
C)	hid sezish
D)	tuyush
...	
125.	Analizatorlar o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi bu:
A)	sensibilizatsiya;
B)	sinesteziya;
C)	retseptor;
D)	reflektor yoyi;
...	
126.	Moddiy borliqdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini, shu bilan birga, ichki a'zolarimizda yuz bergan ayrim o'zgarishlarni aks ettirishdan iborat psixik jarayon bu:
A)	sezgi
B)	idrok
C)	diqqat
D)	hissiyot
...	
127.	Qo'zg'ovchi nima?
A)	sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa yoki hodisa
B)	bilinar-bilinmas sezgi xosil qiladigan qo'zgatuvchi
C)	sezgilarning o'zaro munosabati
D)	umumiy psixologiya
...	
128.	..... shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir
A)	Ijtimoiy norma
B)	Ijtimoiy sanksiya
C)	Ijtimoiy rol
D)	Ijtimoiy me`yor
...	
129.	.....psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir.
A)	ong
B)	amaliy tafakkur
C)	ongsizlik
D)	psixika
...	
130.	Xatti-harakatga undovchi kuch ..... deb ataladi.
A)	Motiv

B)	Jinsiy mayllar.
C)	Ishtiyoq.
D)	Ehtiyoj.
...	
131.	Avval ongli bajarib, keyinchalik avtomatlashgan hatti-harakatlarga ..... aytiladi.
A)	Malaka
B)	Ko'nikma.
C)	Maqsad.
D)	Odat.
...	
132.	Ilyuziya bu.....
A)	bor narsani noto'g'ri, yanglish idrok qilish
B)	bir nimani his qilib anglash
C)	idrokning shaxsga bog'liqligi
D)	yo'q narsani idrok qilish
...	
133.	Appersepsiya – bu ...
A)	idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi
B)	vaqtni, harakatni idrok qilish
C)	yo'q narsani idrok qilish
D)	o'smirlikning o'tish davri krizisi
...	
134.	Ob'ekt va fon bu...
A)	shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa (ob'ekt), muhim bo'lmagan narsa (fon).
B)	sezgi va idrokning bir-biriga bog'liqligi
C)	uyni, gulni batafsil idrok qilish
D)	narsalarning hajmini idrok qilish
...	
135.	Insonni inson tomonidan idrok qilinishi nima deb ataladi?
A)	ijtimoiy persepsiya
B)	ijtimoiy konstantligi
C)	ijtimoiy kommunikativlik
D)	ijtimoiy tashkilotchilik
...	
136.	Insonni inson tomonidan idrok etilishi kim tomonidan tadqiq etilgan?
A)	A.A.Bodalev
B)	A.R.Luriya
C)	I.Pavlov
D)	A.Orbeli
...	
137.	Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?
A)	ilgari idrok qilgan predmet va hodisalarni yodda saqlash, keyinchalik ularni esga tushirishdan iborat jarayon
B)	miyada iz hosil bo'lishi
C)	ilgari idrok qilgan predmet va hodisalarni yodda saqlash
D)	miyadagi muvaqqat bog'lanishlar
...	
138.	Turli xil harakatni esda olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat esda olib qolish.....deb ataladi
A)	harakat xotirasi

B)	hissiy xotira
C)	obrazli xotira
D)	ixtiyorsiz xotira
...	
139.	Tasavvurlar tabiat va hayot manzaralari shu bilan birga tovush hidlar ta'mlar bilan bog'liq xotira.....
A)	obrazli xotira
B)	harakat xotirasi
C)	ixtiyorsiz xotira
D)	ixtiyoriy xotira
...	
140.	Unutishga qarshi vosita bu.....
A)	takrorlash
B)	tanish
C)	eslash
D)	qayta esga tushirish
...	
141.	Idrok qilingan narsa va hodisalarning ularning bog'lanish munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyat
A)	fenomenal
B)	mexanik
C)	retrograd
D)	eshitish
...	
142.	.....shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy va xususiyatlarni tahlil qilamiz.
A)	analiz
B)	sintez
C)	taqqoslash
D)	klassifikatsiya
...	
143.	..... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki narsa va hodisalarning fikran bo'lingan, ajralgan ayrim qismlarini bo'laklarini fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib butun holga keltiradi.
A)	sintez
B)	analiz
C)	taqqoslash
D)	umumlashtirish
...	
144.	..... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.
A)	taqqoslash
B)	abstraksiyalash
C)	analiz
D)	sintez
...	
145.	Psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa belgi xususiyat alomatlarini topish va shu umumiylik asosida birlashtirish -
A)	umumlashtirish
B)	abstraksiyalash
C)	konkretlashtirish

D)	sistemalashtirish
...	
146.	Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr ..... deb ataladi.
A)	hukm
B)	tushuncha
C)	xulosa chiqarish
D)	konkret tushuncha
...	
147.	..... ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilishdan iborat tafakkur shakli.
A)	xulosa chiqarish
B)	tushuncha
C)	induktiv xulosa chiqarish
D)	deduktiv xulosa chiqarish
...	
148.	.....tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo‘lgan xayol turiga aytiladi.
A)	ijodiy xayol
B)	ixtiyoriy xayol
C)	ixtiyorsiz xayol
D)	fantastik xayol
...	
149.	Ijodiy xayolning maxsus turi qanday nomlanadi.
A)	orzu
B)	tiklovchi
C)	tush ko‘rish
D)	fantaziya
...	
150.	Obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek alohida qismlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq xayol jarayoni
A)	giperbolizatsiya
B)	agglyutinatsiya
C)	sxemalashtirish
D)	tipiklashtirish
...	
151.	Turli qismlarni bitta qilib, yangi obraz yaratish bilan bog‘liq
A)	agglyutinatsiya
B)	giperbolizatsiya
C)	tipiklashtirish
D)	aksentirovka
...	
152.	Amalga oshmaydigan xayol turi qanday nom bilan ataladi.
A)	fantastik xayol
B)	ijodiy xayol
C)	ixtiyoriy xayol
D)	ixtiyorsiz xayol
...	
153.	.....oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi.
A)	ixtiyoriy xayol
B)	ijodiy xayol

C)	ixtiyorsiz xayol
D)	fantastik xayol
...	
154.	Tush koʻrish xayolning qaysi turiga taalluqli.
A)	ixtiyorsiz xayol
B)	ixtiyoriy xayol
C)	ijodiy xayol
D)	tasavvur xayol
...	
155.	Odam oʻzini oldiga hech qanday maqsad qoʻymasdan, iroda kuchini sarflamasdan obraz va tasavvurlarni yaratishga .....aytiladi .
A)	ixtiyorsiz xayol
B)	ixtiyoriy xayol
C)	ijodiy xayol
D)	fantastik xayol
...	
156.	Bir xil obrazlarni qaytarilishi boʻlib, har bir davr uchun tipik boʻlgan obrazlarni yaratishdan iborat xayol jarayoni:
A)	tipiklashtirish
B)	agglyutinatsiya
C)	aksentirovka
D)	giperbolizatsiya
...	
157.	Ayrim belgilarni taʼkidlash orqali obrazlar yaratishdan iborat xayol jarayoni
A)	aksentirovka
B)	agglyutinatsiya
C)	giperbolizatsiya
D)	tipiklashtirish
...	
158.	..... tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan boʻlgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil boʻladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.
A)	hissiyot
B)	kayfiyat
C)	ehtiros
D)	affekt
...	
159.	Unchalik kuchli boʻlmagan lekin juda uzoq vaqt davom etadigan hissiy holat bu.....
A)	kayfiyat
B)	ehtiros
C)	affekt
D)	stress
...	
160.	.....toʻsatdan paydo boʻlib tez orada oʻtib ketadigan nihoyatda kuchli holatdir.
A)	affekt
B)	kayfiyat
C)	stress
D)	hissiyot
...	
161.	Inson faolligini oshiruvchi uni umumiy energiyasiga asos soluvchi hislar bu.....

A)	stenik
B)	apatiya
C)	astenik
D)	mimika
...	
162.	SHaxsdagi faollikni ortga qaytaruvchi hislar bu.....
A)	astenik
B)	apatiya
C)	stenik
D)	ekspressiya
...	
163.	Shaxsdagi befarqlik, beparvolik holati bu.....
A)	apatiya
B)	astenik
C)	stenik
D)	ekspressiya
...	
164.	Emotsionallik-bu:
A)	shaxsning emotsiogen vaziyatlarga sezgirligi
B)	shaxsning emotsiogen vaziyatlarga befarqligi
C)	shaxsning emotsiogen vaziyatlarga moslashuvi
D)	shaxsning emotsiogen vaziyatlarni tartibga solishi
...	
165.	Shaxsni tadqiq etishga doir fan:
A)	Personologiya
B)	Falsafa
C)	Antropologiya
D)	Pedagogika
...	
166.	.....ular jamiyat axloq normalariga bo'ysunishi yoki bo'ysunmaslik bilan namoyon bo'ladi
A)	axloqiy hislar
B)	intellektual hislar
C)	praksik hislar
D)	estetik hislar
...	
167.	.....inson tomonidan bilish faoliyati jarayonini his etish holatidir
A)	intellektual hislar
B)	axloqiy hislar
C)	praksik hislar
D)	estetik hislar
...	
168.	..... ijobiy hislar bo'lib, go'zal predmetlar ular orasidagi munosabatni aks etish bilan ifodalanadi
A)	estetik hislar
B)	axloqiy hislar
C)	intellektual hislar
D)	praksik hislar
...	
169.	Stress tushunchasini fanga kiritgan olim?

A)	Gans Sele
B)	Djeyms-Lange
C)	Yorks- Dodason
D)	Kenon-Bard
...	
170.	Stress soʻzining lugʻaviy maʼnosi
A)	jiddiylilik, keskinlik, zoʻriqish
B)	kuchli hissiy zoʻriqish
C)	shiddatli joʻshqin.
D)	oʻxshashlik.
...	
171.	Bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon boʻlishi bu.....
A)	ambivalentlik
B)	apatsiya
C)	ekspressiya
D)	emotsiya
...	
172.	Motivatsiya –bu psixika orqali hosil boʻladigan determinatsiyadir. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda koʻrsatilgan
A)	S.L.Rubinshteyn
B)	A.Adler
C)	A.G.Kovalyov
D)	Z.Freyd
...	
173.	Qaysi qatorda motiv tushunchasiga toʻliq taʼrif berilgan.
A)	odamni muayyan xatti-harakatga undaydigan bosh sabab
B)	intilish maqsad ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlariga intilish
C)	odamni faoliyatga undovchi sabab
D)	shaxsning rivojlanishida eng ajoyib koʻrinishlaridan biri
...	
174.	.....Biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarining yomonlashishiga olib kelishi.
A)	xarakter aksentuatsiyasi
B)	manmanlik
C)	xarakter
D)	qaysarlik
...	
175.	I.P.Pavlov insonlarni qanday tiplarga ajratadi.
A)	badiiy, fikrlovchi, oʻrta
B)	mavhum mantiqiy
C)	jonli tasavvur yorqin idrokli
D)	badiiy fikrlovchi aralash
...	
176.	Malaka va koʻnikmalar shakllanishiga, oʻqishga moyillik uygʻotadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy xissiy holat bu –
A)	qiziqish
B)	istak
C)	iztirob
D)	quvonch
...	
177.	“Shaxsning barcha xatti-harakatlari ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan

	shartlangan” – ushbu talqin kimga taalluqli?
A)	Z.Freyd
B)	S.Xoll
C)	E.Krechmer
D)	V.SHtern
...	
178.	Xotira jarayonlarini aniqlang
A)	Esda olib qolish
B)	Sezish
C)	Eshtish
D)	Xis qilish
...	
179.	Hozirgi zamon psixologiyasida shaxs faolligi manbai, zarurat – bu ...
A)	Ehtiyoj
B)	Qiziqish
C)	Ishtiyiq
D)	Jinsiy mayllar
...	
180.	Ilyuziya bu...
A)	bor narsani noto‘g‘ri, yanglish idrok qilish
B)	bir nimani his qilib anglash
C)	idrokning shaxsga bog‘liqligi
D)	yo‘q narsani idrok qilish
...	
181.	Shaxsning muayyan qiyinchiliklarni yengib o‘tishi bilan bog‘liq ichki kuchi nima deyiladi?
A)	Iroda
B)	Qobiliyat
C)	Motivatsiya
D)	Hissiyot
...	
182.	Simpatiya nima?
A)	Yoqtirish
B)	Yoqtirmaslik
C)	Befarqlik
D)	loqaydlik
...	
183.	Muloqotning komunikativ tomoni qanday?
A)	Tomonlar bir biri bilan axborot almashish
B)	Tomonlar bir birini idrok qilishi
C)	Tomonlar bir birini his qilish
D)	Tomonlar bir biri bilan fikr almashish
...	
184.	Diqqatning bir vaqtning o‘zida bir necha obektga taqsimlanishi diqqatning qaysi xususiyati?
A)	Diqqatning taqsimlanishi
B)	Diqqatning ko‘lami
C)	Diqqatning ko‘chishi
D)	Diqqatning barqarorligi
...	

185.	Ikki qo'ning ko'krak qafasida chalishtirib turilishi nimani ifodalaydi?
A)	Ximoya
B)	Qo'rquv
C)	Xayajon
D)	Stress xolati
...	
186.	Shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual xususiyatlar nima deyiladi?
A)	Qobilyat
B)	Iroda
C)	Motivatsiya
D)	Hissiyot
...	
187.	Psixologiya haqidagi fikrlar orasida "Ideyalar tug'ma bo'ladi" ushbu fikr qaysi olimga tegishli?
A)	Platon
B)	Aristotel
C)	Demokrit
D)	Geraklit
...	
188.	Psixologiya fan sifatida yuzaga kelishi necha bosqichda amalga oshadi?
A)	4 bosqichda
B)	6 bosqichda
C)	2 bosqichda
D)	3 bosqichda
...	
189.	"Atlas po psixologii" nomli qo'llanmaning mualliflari qaysi olimlar?
A)	M.Gomez va Domashenko
B)	Platon va Aristotel
C)	M.G. Davletshin va Karimova
D)	Geraklit va Demokrit
...	
190.	Psixikaning asosiy funksiyalari qaysilar
A)	Aks ettirish, xulq va faoliyat nazorati
B)	O'z - o'zini nazorat qilish
C)	Tashqi olamga javob reaksiyasi
D)	Xulq atvor faoliyati, psixoterapiya
...	
191.	"Psixika bu- oliy darajadagi materiyaning xususiyati tushunilib, u obyektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo'ladi,subyekt faoliyatini maqsad asosida yo'naltiradi hamda xulq- atvor negizida shakllanadi" ushbu ta'rif kimga tegishli?
A)	M.G. Davletshin
B)	V.M. Karimova
C)	F.I.Haydarov, N.I.Xalilova
D)	I.V. Petroviskiy
...	
192.	Determinizm tamoyilini targ'ibotchisi bo'lgan psixolog olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A)	Spinoza
B)	Dekart
C)	Jon Lokk

D)	Gobbs
...	
193.	K.E.Fabri rivojlanish bosqichlaridan qay birini 2 ta darajaga bo'lgan
A)	Perseptiv bosqich
B)	Sensor bosqich
C)	Intellektual bosqich
D)	Barcha bosqichlar 2 ta darajaga bo'linadi
...	
194.	Leontiv fikricha, "Muvaffaqiyatsiz harakatlardan so'ng to'satdan javob topish aqliy xatti-hrakatlarning yana bir hususiyatidir". Ushbu hodisa V.Kyoler tomonidan qanday nom bilan atalgan
A)	insayt
B)	reaksiya tempi
C)	taksis
D)	refleksiya
...	
195.	Emotsiya so'zining manosi nima?
A)	Lotincha "ruhiy qo'zg'alish, hayajonga solish"
B)	Yunoncha "sezish"
C)	Lotincha "qo'rquvni xis qilish"
D)	Yunoncha "his qilish"
...	
196.	Psixologiyaning asosiy funksiyalarini aniqlang.
A)	Aks ettirish, ong va faoliyat
B)	Determinizm. Psihologiyani rivojlanishi
C)	Aks ettirish va dinamik stereotip
D)	Ava B javoblar to'g'ri
...	
197.	Psixologiya fan sohalarini 3 turda tasniflagan olim kim ?
A)	L.S.Vigotskiy
B)	A.V.Petrovskiy
C)	S L.Rubinshteyn
D)	B.M.Kedrov
...	
198.	Psixologiyaning qaysi sohasi- yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darajasi, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishning eng yuqori cho'qqiga erishish xususiyatlarini o'rganadi?
A)	Akmeologiya
B)	Tiflopsixologiya
C)	Qiyosiy psixologiya
D)	Para psixologiya
...	
199.	G.Ananev kalssifikatsiyasiga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar qaysi guruh metodlari hisoblanadi?
A)	Empirik guruh
B)	Tashkiliy guruh
C)	Statistik metodlar
D)	Sharhlash guruhi
...	

200.	Bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi bu.....
A)	ambivalentlik
B)	ekspressiya
C)	hissiyot
D)	Emotsiya

## 2. SOTSIAL PSIXOLOGIYA FAN BO'YICHA:

№	TEST SAVOLLAR
1.	"Ijtimoiy psixologiyaga" kirish kitobi kimga tegishli.
A)	V. Makdugall
B)	I.Pavlov.
C)	V. Vunt.
D)	E Ross
...	
2.	Ijtimoiy psixologiya" kitobi kimga tegishli.
A)	E Ross
B)	V. Makdugall
C)	I.Pavlov.
D)	V. Vunt.
...	
3.	Rus sotsiologlari G.P.Predvechniy va Yu.A.Sherkovinlarning "Sotsial psixologiya" kitobida esa sotsiologiyaning predmeti"
A)	"... ob'yektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir", deb hisoblaniladi
B)	"Odamlar uyushmasi kooperatsiyalar — ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'ekti esa ijtimoiy o'zaro ta'sirdir".
C)	Hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar
D)	Xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlarning inson ongiga singishi, ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'lishi
...	
4.	"Davlat" va "Qonunlar" deb atalgan dialoglarida qaysi faylasufga tegishli
A)	Platon
B)	Gobbs
C)	Aristotel
D)	Demokrit
...	
5.	Sotsial psixologiya fani predmeti
A)	Odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandır.
B)	Xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlarning inson ongiga singishi, ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'lishi
C)	Shaxs va jamiyat muammolari
D)	Hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar
...	
6.	G.Gibsh va M.Forverglar bu fanning predmetiga qanday ta'rif beradilar

A)	"Odamlar uyushmasi kooperatsiyalar — ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'ekti esa ijtimoiy o'zaro ta'sirdir".
B)	Hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar
C)	Xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlarning inson ongiga singishi, ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'lishi
D)	Shaxs va jamiyat muammolari
...	
7.	Ijtimoiy psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi.
A)	Xalqlar psixologiyasi nazariyasi, Omma psixologiyasi nazariyasi, Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi
B)	Xalqlar psixologiyasi nazariyasi, Omma psixologiyasi nazariyasi, bixeviorizm
C)	Xalqlar psixologiyasi nazariyasi, geshtalt nazariyasi, ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi
D)	Xalqlar psixologiyasi nazariyasi, Omma psixologiyasi nazariyasi, Psixoanaliz nazariyasi
...	
8.	Xalqlar psixologiyasi nazariyasi qachon qayerda paydo bo'lgan.
A)	XIX asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi
B)	XIX asrning ikkinchi yarmida Evropada
C)	XX asrning boshida Angliyada shakllandi.
D)	XVIII asrning boshida Rossiada shakllandi.
...	
9.	Omma psixologiyasi nazariyasi qachon qayerda paydo bo'lgan.
A)	XIX asrning ikkinchi yarmida Evropada
B)	XVIII asrning boshida Rossiada shakllandi.
C)	19-asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi
D)	XX asrning boshida Angliyada shakllandi.
...	
10.	Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari psixologiyasi nazariyasi qachon qayerda paydo bo'lgan
A)	XX asrning boshida Angliyada shakllandi.
B)	XIX asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi
C)	XIX asrning ikkinchi yarmida Evropada
D)	XVIII asrning boshida Rossiada shakllandi
...	
11.	Referent guruh tushunchasi fanga qaysi olim kiritgan ?
A)	G. Xaymen
B)	V.Vund
C)	M.Andreyeva
D)	Parigin
...	
12.	Kichik guruxlarga xos qonuniyatlar nechta ?
A)	5 ta
B)	3 ta
C)	9 ta
D)	7 ta
...	
13.	..... bu real yoki tasavvurlardagi guruhning shaxs e'tiqodi va xulq-atvoriga ta'sirini tushuntiruvchi xodisadir
A)	Konformizm
B)	Guruh
C)	Jamoa

D)	Nonkonformizm
...	
14.	Kichik guruhlar psixologiyasi o`rgangan olimlar kimlar?
A)	N. Triplett, A. Mayer, V.M. Bexterev, V. Myode
B)	V. Makdugall, A. Mayer, V.M. Bexterev, V. Myode
C)	I.Pavlov, N. Triplett, A. Mayer, V.M. Bexterev
D)	E.Ross, V. Makdugall, A. Mayer
...	
15.	Kichik guruhlarning hajmi, uni tashkil etuvchi shaxslar soni
A)	2-30-40
B)	2-20
C)	2-50
D)	2-35
...	
16.	..... hamkorlikning darajasi mezoniga ko`ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo`lib o`rganishni taklif etgan edi
A)	aCh. Kuli
B)	A. Mayer,
C)	V.M. Bexterev,
D)	V. Myode
...	
17.	Referent guruhlar?
A)	ota-onalar, rahbarlar
B)	Do`stlar
C)	Notanishlar
D)	Olamon
...	
18.	Sotsial psixologik muammolarni hal qilish uchun uning maxsus tarmog`i "jamoa refleksologiyasi"ni taklif qilgan mutaxassis ...
A)	V.M.Bexterev
B)	L.S.Vygotskiy
C)	P.P.Blonskiy
D)	K.N.Kornilov
...	
19.	"Olomon va yig`inlarning faoliyati yuzaga kelishi, rivojlanishi hamda ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni o`rganish" XX asrning oxirlarida qaysi fan predmeti sifatida namoyon bo`ldi?
A)	ijtimoiy refleksologiya
B)	ijtimoiy reaktologiya
C)	jamoa refleksologiyasi
D)	jamoa reaktologiyasi
...	
20.	V.M.Bexterevning qaysi kontseptsiyasi sotsial psixologiya uchun asos bo`la olmadi?
A)	refloksatsiya kontseptsiyasi
B)	reaktologiya kontseptsiyasi
C)	refleksologiyasi kontseptsiyasi
D)	sotsial munosabatlar kontseptsiyasi
...	
21.	Barcha psixik jarayonlarning rivojlanishi borasidagi madaniy-tarixiy determinatsiya g`oyasini rivojlantirgan olimni aniqlang.
A)	L.S.Vigotskiy

B)	V.M.Bexterev
C)	P.P.Blonskiy
D)	K.N.Kornilov
...	
22.	“Xalqlar psixologiyasi” kontseptsiyasini rivojlantirgan olimni aniqlang.
A)	V.M.Vundt
B)	L.S.Vigotskiy
C)	V.M.Bexterev
D)	P.P.Blonskiy
...	
23.	Ijtimoiy psixologiya, yoki V.M.Vundt talqinicha “Xalqlar psixologiyasi” fanining predmetini aniqlang
A)	til, miqlar, urf-odatlar, san’at va din
B)	til, miqlar, urf-odatlar va oila
C)	alohida shaxsning psixikasi
D)	jamoaviy sharoitda shaxs psixologiyasi
...	
